



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT GEOLOGIYA VA MINERAL
RESURLAR QO‘MITASI
GEOLOGIYA FANLARI UNIVERSITETI
“MINERAL RESURLAR INSTITUTI”
DAVLAT MUASSASASI



Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**“FOYDALI QAZILMA KONLARINI GEOLOGIK, MINERALOGIK O‘RGANISH,
ULARNI QAZIB OLIISH, BOYITISH VA FOYDALI KOMPONENTLARINI
AJRATIB OLIISH TEXNOLOGIYALARINING INNOVATSION YO‘NALISHLARI”**

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Geologiya fanlari universiteti
2024 yil 22 avgust

Ikkinchi sirkulyar

Hurmatli hamkasblar!

O‘zbekiston hududidagi mineral xomashyo va metallurgiyani o‘rganish tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi V asrda Gerodot Orol dengizidan Nurota tog‘larigacha “oltin ko‘p”ligini dunyoga e‘lon qilganini maktab kunlarimizdan eslaymiz. Chirchiq daryosi havzasida miloddan avvalgi I mingyillik boshlariga oid inson ishtirokida qayta yotqizilgan daryo cho‘kindilari qatlamlaridan arxeologlar tomonidan aniqlangan konchilikda foydalaniladigan bronza va qayil kabi kon buyumlarini quyish uchun qoliplar topilmalari bu yerda sochma oltin konlari qazib olinganidan darak beradi. VIII asr boshidan “Amu daryosi bo‘yida joylashgan o‘lkada” va Chirchiqning yuqori oqimida mavjud sochma oltin va uni qazib olish to‘g‘risidagi xabarlar dunyoning ko‘p joylariga tarqala boshladi.

Jahonga mashhur buyuk olimlar – Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Forobiy va boshqalar X asr muqaddam o‘z asarlarida O‘zbekiston hududida oltin, rangli metallar konlari, qimmatbaho toshlar borligi haqida ma‘lumot berganlar.

Ajdodlarining boy an‘analariga amal qilgan holda, XX asrning zamonaviy geologlari H.M. Abdullaev, X.T. To‘laganov, I.X. Xamraboev, X.N. Baymuhamedov, A.V. Korolev, P.A. Shextman, K.L. Boboev. T.N. Dalimov va boshqalar o‘zbek geologiyasi rivojiga katta hissa qo‘shdilar. Ular tashkil qilgan ilmiy maktablar bebaho bo‘lib, hozir ham geologiya fanida muhim o‘rin tutadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi ko‘plab foydali qazilmalar va zaxiralar bo‘yicha jahon bozoridagi o‘z mavqeini mustahkamlab oldi. Respublikamizda 80 turdagi foydali qazilmalarning uch mingdan ortiq konlari aniqlangan. Oltin, uran, mis, gaz kabi foydali qazilmalarning zaxiralari va ularni qazib olish bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda turadi. Yildan yilga foydali qazilmalarni qazib olish ko‘rsatkichlari oshib bormoqda, bu esa o‘z navbatida foydali qazilmalarning resurs va zaxiralari esa ko‘paytirib borishni talab etadi.

Shu bilan birga, erishilgan ko‘plab yutuqlar qatorida mamlakatimiz mineral-xomashyo bazasini mustahkamlash borasida hal etilishi zarur bo‘lgan ko‘plab muhim muammo va vazifalar mavjud.

Muhtaram Prezidentimizning 2020 yil 8 iyundagi “Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4740-son Qarori bilan 4 ta ilmiy-tadqiqot institutlari negizida zamonaviy ta‘lim va ilm-fan klasteri – Geologiya fanlari universiteti tashkil etildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 martdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tizimidagi Geologiya fanlari universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-154-son Qarori bilan Geologiya fanlari universiteti tarkibidagi ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy maktablarini rivojlantirish va chet el ITI bilan hamkorlikni rivojlantirishga alohida urg'u berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 iyuldagi PF-116-sonli "Ma'muriy islohotlar doirasida tog'-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida 2023-2025 yillarda mineral-xom ashyo bazasini rivojlantirish dasturi tasdiqlangan bo'lib, ilmiy-tadqiqot ishlarining aniq yo'nalishlari va hajmi belgilab berilgan.

Ushbu anjumanning asosiy maqsadi yer qa'rini geologik o'rganish sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ilmiy yondashuvlar va ularni ishlab chiqarishga joriy etish bilan bog'liq dolzarb muammolarni hal etish, mineral xomashyo bazasini mustahkamlash maqsadida iqtisodiy jihatdan samarali tadqiqotlarga bo'lgan talabni aniqlash, geologiya fanlari va tog'-kon sanoati sohalaridagi uzoq muddatli ilmiy-tadqiqotlar istiqbolli rejasini belgilab olishdan iborat.

Anjuman tashkiliy qo'mitasi nomidan Sizni **2024 yil 22 avgust kuni** O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti "Mineral resurslar instituti" DM tomonidan tashkil etilayotgan **"Foydali qazilma konlarini geologik, mineralogik o'rganish, ularni qazib olish, boyitish va foydali komponentlarini ajratib olish texnologiyalarining innovatsion yo'nalishlari"** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etishga taklif etamiz (Toshkent shahri, O'zbekiston).

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda respublikamizda geologiya va tog'-kon sanoati sohalarini rivojlantirish, mavjud muammolarning ilmiy va amaliy jihatdan yechimini topish, geologiya va konchilik sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish kabi keng ko'lamli masalalarni muhokama qilish rejalashtirilmoqda.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga tayyorgarlik ko'rish
va uni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi

"Foydali qazilma konlarini geologik, mineralogik o'rganish, ularni qazib olish, boyitish va foydali komponentlarini ajratib olish texnologiyalarining innovatsion yo'nalishlari"

Tashkiliy qo'mita prezidiumi:	
Kadirxodjaev A.A.	- Tog'-kon sanoati va geologiya vaziri o'rinbosari;
Rustamov A.I.	- Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi departament boshlig'i;
Qodirov O.Sh.	- Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi bo'lim boshlig'i;
Isoqov M.U.	Geologiya fanlari universiteti rektori.
Tashkiliy qo'mita a'zolari:	
Xalilov A.A.	- Geologiya fanlari universiteti prorektori;
Turamuratov I.B.	- "Mineral resurslar instituti" DM direktori;
Axmedov M.Sh.	- "Mineral resurslar instituti" DM ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari v.b.;
Tal'atxodjaev D.Sh.	- "Mineral resurslar instituti" DM tijoratlashtirish bo'yicha direktor o'rinbosari;
Mirkamalov R.X.	"Mineral resurslar instituti" DM, bosh ilmiy maslahatchi.
Kotibiyat:	
Asabaev D.X.	- "Mineral resurslar instituti" DM, ilmiy kotib

Munduzova M.A.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, bo‘lim boshlig‘i
Xoliyorov A.T.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, katta ilmiy xodim;
Tashkiliy qo‘mita ishchi guruhi:		
Pirnazarov M.M.	-	“Geologiya fanlari universiteti”, kafedra professori;
Asadov A.R.	-	“Geologiya fanlari universiteti”, kafedra dotsenti;
Soy V.D.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, bosh ilmiy xodim
Sayitov S.S.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, bo‘lim boshlig‘i
Divaev F.K.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, bo‘lim boshlig‘i
Qoldibekov O.Ya.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, bo‘lim boshlig‘i
Musaxonov Z.M.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, markaz mudiri
Goipov A.B.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, bo‘lim boshlig‘i
Xamidullaev B.N.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, bo‘lim boshlig‘i
Alimov R.S.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, Laboratoriya boshlig‘i;
Kirezidi S.V.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, bo‘lim boshlig‘i
Oxunov A.X.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, bo‘lim boshlig‘i
Karimov R.Sh.	-	“Mineral resurslar instituti” DM, bo‘lim boshlig‘i
Xoldorov O.O.	-	Tajriba orttiruvchi kichik ilmiy xodim

Anjumanning rasmiy tillari – o‘zbek, rus va ingliz.

Ma‘ruzachilar tezis va ma‘ruzalarini o‘zlari tanlagan konferensiyaning rasmiy tilida taqdim etishlari mumkin.

Konferensiyaning shakli va qoidalari: Konferensiya ochilish qismidan keyin to‘rtta ilmiy seksiyada ish olib boradi.

<u>Seksiyalar</u>	<u>Moderatorlar</u>
1-seksiya. Foydali qazilma konlari geologiyasi va istiqbolli maydonlarni bashoratlash uslublari	1. A.I.Rustamov – Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Geologiya sohasini rivojlantirish departamenti boshlig‘i; 2. O.Sh.Qodirov – Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Innovatsiyalar, fan va ta‘lim bo‘limi boshlig‘i; 3. I.B. Turamuratov – Mineral resurslar instituti direktori.
2-seksiya. Konlar mineralogiyasi, geokimyosi, genezisi, strukturaviy, tektonik tuzilishi va boshqa bashoratlash me‘zonlari	1. M.M. Pirnazarov – Geologiya fanlari universiteti professori; 2. R.X. Mirkamalov – Mineral resurslar instituti, bosh ilmiy maslahatchisi; 3. S.S. Sayitov – Mineral resurslar instituti, bo‘lim boshlig‘i.
3-seksiya. Ma‘danlarni qayta ishlash va ulardan foydali komponentlarni ajratib olishning innovatsion texnologiyalari	1. A.R. Xasanov – “Olmaliq KMK” AJ bosh muxandisning ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari;

	<p>2. B.N. Xamidullaev – Mineral resurslar instituti bo'lim boshlig'i;</p> <p>3. I.M. Almatov – Mineral resurslari instituti, markaz mudiri.</p>
<p>4-seksiya. Foydali qazilma konlarini qazib olishda yangi texnologiyalar</p>	<p>1. O.N. Usmankulov – Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Rangli metallar sohasini rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi;</p> <p>2. N.D. Muratov – “Regionalgeologiya” DK, Bosh muxandisi, t.f.DSc.</p> <p>3. F.A. Badalov – Mineral resurslar instituti laboratoriya boshlig'i.</p>

Ma'ruzalarga hamda undan keyingi savol-javoblar uchun **15 daqiqagacha** vaqt ajratiladi.

Ishtirokchi qaydnomasi va tezislarni qabul qilish qoidalari:

Ishtirokchi qaydnomasi va tezis matnlari **2024 yil 2 avgustgacha** qabul qilinadi.

Matn terilishi Microsoft Office Word redaktorida (yoki boshqa bo'lsa rtf shaklida), shrift Times New Roman, kegl 14 pt, interval 1,5. Hoshiyalar: chapdan, o'ngdan, tepa va pastdan - 2 sm, abzas 1 sm. Xat boshi o'rni (abzas) tabulyatsiya yoki probellarsiz.

Matn hajmi: 3, 4 yoki 5 to'liq betlar.

Ma'ruza matni va ishtirokchi qaydnomasi faylini anjuman2024.mri@mail.ru elektron manzil bo'yicha yuborishingizni so'raymiz.

Konferensiya tezislari to'plami chop etiladi.

Muhim sanalar:

Birinchi sirkulyarni tarqatish – **2024 yil 13 maygacha**.

Ikkinchi sirkulyarni tarqatish – **2024 yil 04 iyulgacha**.

Tezis matni va ishtirokchi qaydnomasini qabul qilish – **2024 yil 2 avgustgacha**.

Anjuman dasturini chop etish – **2024 yil 15 avgustgacha**.

Anjuman to'plamini chop etish – **2024 yil 18 avgustgacha**.

Konferensiya tashkiliy qo'mitasi manzili: Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, Olimlar ko'chasi 64 uy, Geologiya fanlari universiteti, “Mineral resurslar instituti” davlat muassasasi.

Elektron manzil: anjuman2024.mri@mail.ru

Mas'ul ilmiy kotib: Asabaev D.X., tel. +998 (97) - 741-24-80

Kotibiyat a'zolari: Munduzova M.A., tel. +998 (90) - 973-77-35

Xoliyorov A.T., tel. +998 (94) 699-06-02

Konferensiya haqida to'liq ma'lumotni www.mridm.uz veb-saytidan olishingiz mumkin.

ISHTIROKCHI QAYDNOMASI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

Foydali qazilma konlarini geologik, mineralogik o'rganish, ularni qazib olish, boyitish va foydali komponentlarini ajratib olish texnologiyalarining innovatsion yo'nalishlari

Ishtirokchi fotosurati (4x5)	Familiyasi:	
	Ismi:	
	Sharifi:	
	Korxonasi nomi:	
	Ilmiy unvon, lavozimi:	
	Manzili:	
	Telefon:	
	Faks:	
	El. pochta:	

Ma'ruza nomi:

Konferensiya ishtirokchisining imzosi _____

***Konferensiya off-layn va onlayn shaklda o'tkaziladi. Ro'yxatdan o'tgan ishtirokchilarga ZOOM ilovasi orqali ulanish uchun havola va kod taqdim etiladi.**